

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'ri 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'ri 16

FALSAFA

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlar 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn Axmudning ontolgik qarashlari 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'ri 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'ri 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'ri va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 1(091):2-67

IRFONiy QARASHLARNING FALSAFIY MAZMUN–MOHIYATI (MUTAFAKKIRLAR ASARLARINING TAHLILI ASOSIDA)**ИРФАНСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ-СУТЬ ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ (НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ТРУДОВ МЫСЛИТЕЛЕЙ)****IRFAN CONTENT - THE ESSENCE OF PHILOSOPHICAL VIEWS (BASED ON AN ANALYSIS OF THE WORKS OF THINKERS)**

Lutfillo Karamatilloevich Axatov 
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Irfoniy qarashlar mohiyati so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. Tasavvufning rivojlanishi so'fiylar axloqi qa falsafiy mushohada irratsional yondashuv asosida tadbiiq qilinadi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.

Аннотация

Сущность философско-этических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Для понимания этических воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.

Abstract

The essence of philosophical and ethical views was analyzed with the help of Sufi life and mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered.

Kalit so'zlar: Irfon, tasavvuf (arab til: التَّصَوُّف), falsafa, ilm, Jomiy, islom, idrok, mutafakkir.

Ключевые слова: Ирфан, суфизм (араб.: التَّصَوُّف), философия, наука, Джамии, ислам, восприятие-мысленно, мыслитель..

Key words: Irfan, Sufism(arabical.: التَّصَوُّف), philosophy, science, Islam, Jami, perception-mentally, thinker.

KIRISH

Falsafiy-irfoniy qarashlarning mazmunan birikishi, ratsional (falsafiy-aqliy) bilishning gnoseologik yondashuviga xos tadrijiy jarayondir.

Irfon ilmi aqliy faoliyatning bilishga bo'lgan substatsional jihati ularoq, tasavvuf (oriflar) ta'limotida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun o'rta asr falsafasi (tasavvuf) namoyandalarining diyarli aksariyatida e'tiqod bosh omil vazifani o'tagan va har bir ilmiy merosni yozishda Alloh nomi ila deb boshlashgan.

Globalashuv davri shiddat bilan tobora jadallashib borayotgan vaqt masofasining talablaridan biri bu jamiyatda malakali mutaxasislarni, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, barkamol avlodni voyaga etkazib, mamlakat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan, shuningdek, jamiyat ma'naviy kamolotining ilhomlantiruvchi manbai sifatida namoyon bo'ladigan avlodni kamol toptirishdan iboratdir.

Shuning uchun, yosh avlodni tarbiyalashda bugungi kun bilan hamnafas bo'lishligi bilan birga, pok e'tiqod va urf odatlarimizning mohiyatiga alohida e'tibor qaratish orqali tarbiyalash lozim. Bu esa, o'z navbatida, falsafiy tafakkur tarzini rivojlantiruvchi atributlar va irfoniy qarashlar komparativistikasini o'rganish kerakligini taqoza etadi.

TAHLIL VA METODLAR

Jamiyat ma'naviy kamolotining ilhomlantirishga xizmat qiladigan manbalar bo'lmish falsafiy-irfoniy qarashlar orqali yosh avlodni kamol toptirish uchun hikmat ilmi-falsafa va oriflar zikri-irfoni ilmini keng ommaga tadbiiq qilish bosh maqsaddir.

Har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy muhiti va «Jamiyat barqarorligining muhim ustuvor tomonlarini belgilab beruvchi tuzum»lar shakllanib borganligini tarixiy manbalardan kuzatishimiz mumkin.

Mintaqalar barqarorligi esa din va axloq, san'at va adabiyot zahirida falsafiy-irfoniy ilmlarning shakllanib borishligi rad etib bo'lmaz haqiqatdir, zero, san'at va din hech bir zamon va makonda ham, hech bir mintaqa va millatda ham bo'linmas hisoblanishi bilan o'z mavqeiga ega. Din va san'atning millat tanlamasligi bu insoniyat tarixidagi «Buyuk kashfiyot» demakdir. Ushbu «kashfiyot»ni mazmun-mohiyatida shakllangan tasavvufiy-irfoniy qarashlarni tafakkur orqali mushohada qilish bu hikmat ilmi-falsafaning vazifasi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Falsafiy-irfoniy qarashlar orqali milliy ma'naviyatimiz va uning bunyodkorlari uchun muhim vazifalarni belgilab beradi. Qonunan tartibga solish va ma'lum meyorlarni joriy qilish sohalaridagi faoliyatni nazorat qilishga urgatsa, e'tiqod orqali halollik, poklik, vijdon va birqancha dinshunoslik «kategoriya»lar orqali insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashga undaydi. Har ikkala tomondan qaralsa ham, ilm va u orqali kuchli jamiyatni bunyod etish mumkin. Bularni tizimli asosda shakllantirish esa falsafiy-irfoniy qarashlar orqali yo'lga quyish mumkin. Bu esa millatlar va mintaqalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni, bag'irikenglik va do'stlik ruhini sayqallanishiga zamin hozirlashi tabiiy jarayondir.

Tarixda shunday mashhur zotlar o'tganki, tazkira va tarix arboblari ular haqida so'z ochganlarida: «Bu zot ta'rif va tavsifga muhtoj emas, bu erda nomlari tabarrukona keltirildi», deb qo'ya qoladilar[1,3].

Falsafiy mushohada orqali ma'lum bir o'zgarishlarni tafakkur tarzida analiz-sintez qilib, qisman xulosa qilish mumkin, ammo bu faqatgina ratsional yondashuvni taqozo etadi. Bugungi globallashuv davrida kerak bo'lsa ratsional qarashlarning bir o'zi bilan chegaralanish bu biryoqlama qarashni taqozo etadi. Shuning uchun ratsional yondashuvlarni yanada mukammalroq ahamiyat kasb etishi uchun irratsional yondashuvlarni ham keng miqyosda jonlantirish kerak. Bunda falsafa ilmining xayrixohligi o'z-o'zidan irfon ilmi va uning namoyandalariga murojaat qiladi. Shundagina falsafiy-irfoniy qarashlar ma'lum ma'noda yangicha tafakkur tarzini shakllantirishga dastak bo'lib xizmat qiladi. Bunda tasavvuf-irfon ilmi vakillari va ularning ilmiy meroslarini qiyosiy tahlil qilish alohida o'rin egallaydi.

Irfon (عرفان) ilmi negizida borliq qonuniyatlarini tahlil qilish uchun tasavvuf (التصوف) – ruhiy quvvat, ruhiy tarbiya vakillari ilmiy meroslari oladigan bo'lsak, ularning Islom va inson o'rtasidagi ajralmas robitani shakllantirgan muhtaram zotlar sanaladi. Irfon ilmi – oriflar zikri, so'fiylar maqomoti, ma'rifatparvarlar merosi tarzida gavdalanuvchi irratsional (ilohiy-g'ayb) ilmini tatbiq etadi.

Tasavvuf (التصوف) – taxliya, ya'ni xoli bo'lmoq, qalbni bo'shatmoq va yaxshi, maxtalgan axloqdir, deydilar. Ikkinchidan, tasavvufni tasfiya, ya'ni ruhni ag'yor – begonadan tozalashdir, deb aytadilar. Uchinchidan, tasavvuf huzu', ya'ni nafsni jilovlash, xoksorlik va jonsiporlik namunasini ko'rsatishdir deydilar[2,18].

Tasavvuf ahlini kimligini bilishni istagan inson eng avvalo Islom va inson omili haqida mukammal manbalarga suyanmasdan turib (o'z – o'zicha muxtasar) xulosalar chiqarishi «Beodob da'voga»likdan o'zga narsa emas.

Tadqiqotdagi tendensiyalarni birlashtirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladigan ilmiy meroslarni kengroq tadqiq qilish muhimligi e'tirof etilgan. Shuning uchun tasavvuf ma'rifatini shakllanishiga «Quvvati ruh» – ruhiy quvvat (L.K) bag'ishlagan, piri tariqat deb nom olgan, Shayx Nuriddin Abdurahmon Jomiy ilmiy merosini o'rganish har bir zamon va makonga xos tadqiqot obyekti sifati qaraladi.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«Ilm talab qilish har bir musulmonning zimmasiga farzdir», – dedilar».

Ahmad va Ibn Moja rivoyat qilgan[3,274].

Bundan ko'rinib turibiki, ilm olish va uni hayotga tadbiq qilib borish hammamizga shart ekan. Zero, Alloh taolo Isro surasining 70-oyatida quyidagicha marhamat qiladi:

«Batahqiq, Biz Banu Odamni azizu mukarram qilib qo'ydik va ularni quriqligu dengizda (ulov-la) ko'tardik hamda ularni pok narsalardan rizqlantirdik va ularni O'zimiz yaratgan ko'p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo'ydik»

FALSAFA

Inson hamma jonotlar ichida eng mukammali hisoblanadi. Bunday sharafiga ega bo'lgan inson albatta ilm va ma'rifatni mukammal o'rganib borishligi lozim. Bunday jarayonni esa arslar osha o'z ahamiyatini mustahkamlab kelayotgan mutafakkirlar ilmiy merosi orqali amalga oshadi.

Sharqshunos olim Bahrom Abduhalimovning «IX-XI asrlarda musulmon madaniyatidagi umumiy madaniy yuksalish Movarounnahr va Xuroson olimlari ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. IX-XI asrlarda musulmon madaniyatining «Oltin davri» bo'lmish fan va madaniyat rivoji Xuroson va Movarounnahr (L.K) hududiga ko'chib o'tdi»[4,9] deb e'tirof etgan.

VIII-XI asrlarda Markaziy Osiyoda tasavvufning yuksak maqomda rivojlangan davr sifatida e'tirof etiladi.

VIII asrning birinchi yarmida Movarounnahr Arab xalifaligiga bo'ysundirilgandan so'ng Markaziy Osiyoga Islom dini bilan birgalikda Islom ilmlari – tavsir, hadis, fiqh va kalom ham kirib keldi[5,35].

VIII asrning birinchi yarmida Movarounnahr Arab xalifaligi kirib kelganidan so'ng, yangicha dunyoqarash, yangicha ijod namunalari shakllandi. Sekin asta jamiyat boshqaruvi va ijod yo'nalishidagi (amaliy muomaladagi) til bu arab yozuviga xos forsiy til amalga oshirildi. O'rta asrlarga kelib, Sharq mintaqa xalqlari ijodi bir muncha dunyo yuzini ko'ra boshladi. Bu o'zgarishlar, Sharqona madaniyatning yangi bosqichga chiqishi, bugungi kungacha o'z ulug'vorligiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Samarqand shahrida «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida 2014 yil 15 mayda so'zlagan nutqida ushbu Forum-konferensiyaning maqsadi O'rta asrlarda Sharq zaminida yashab ijod qilgan buyuk allomalar va mutafakkirlarning ilmiy meroslarini chuqur tahlil qilish va anglash, ularning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va rolga munosib baho berishdan iboratligini aytib o'tgandi[6,3].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi»[7] mavzusidagi anjumanda e'tirof etib o'tgan takliflari asosida 2017 yil 8 noyabrda Samarqandda hadis va kalom ilmiy maktablari, shu yili (2017 yil) 10 noyabrda Qashqadaryoda aqida ilmi maktabi hamda Buxoroda Mir Arab madrasasi huzurida tasavvuf ilmiy maktabi va shu yili (2017 yil) 13 noyabrda Farg'onada Islom huquqi maktabi ochilgan.

Shuningdek, so'z tasavvuf (arab: **التصوف**) - borasida borar ekan, «Tasavvufning paydo bo'lish, taraqqiyot jarayoni to'g'risida har xil fikrlar va taxminlar mavjud. Tasavvuf to'g'risida yozgan o'rta asr olimlari, shu jumladan, so'fiylik maktabining yirik vakili, ko'plab asarlar muallifi as-Sulamiy, Xuroson maktabining vakili, ko'plab mumtoz asarlar yozgan Abu Abdurahmon Muhammad Husayn (937 yoki 912—1002), mashhur so'fiy al- Ansori al—Xaraviy Abu Ismoil Abdulloh Ibn Muqammad (1006—1089), tasavvuf tarixi va mohiyati, mutasavviflar dunyoqarashi va amaliyoti ma'lum tartibda bayon qilingan. Fors tilidagi ilk asar muallifi al-Xujviriy Abul Hasanali Usmon al-G'aznaviy, al-Jullabiy (1072 yoki 1076 yilda vafot etgan)-larni Xurosonda va Movarounnahrda chiqqan so'fiylarning birinchi qatorida deb hisoblaydilar»[8,143].

Falsafiy-irfoniy qarashlarning bir tizimga tizimlashtirish eng muhim masaladir.

Falsafiy-irfoniy qarashlarni tadqiq qilishning o'ziga xos zaruratlaridan biri, «O'zbekistonda ham, xorijda ham tasavvufning tariqatlar davrigacha yashab o'tgan ajdodlarimiz – Markaziy Osiyolik so'fiy mualliflar tomonidan yaratilgan so'fiylikning nazariy manbalari – tasavvufga bag'ishlangan asarlarning tasavvuf ta'limotining tizimlashtirilishida tutgan muhim o'rni ham deyarli tadqiq etilmagan»[9,10] ligi.

XULOSA

Falsafiy-irfoniy qarashlar mohiyatidan o'rin olgan - tasavvufning genezisi haqida turli bahs va munozaralar borligi hammamizga ma'lum. Misol uchun: akademik, sharqshunos I.P.Petrushevskiyning tasavvuf haqida, uning (tasavvufning) mohiyati bu Islom dinidagi mistika deb tahlil qiladi va tasavvuf (so'fiylik yo'li) ta'limotiga shu tushuncha asnosida tavsif bergan. I.P.Petrushevskiyga ko'ra «Mistika yoki mistitsizm (yunon - sirli) tarkibida doimiy ifodalanishi «Tajalli» deb ataluvchi holat yordamida, botiniy bir «Jazba», ekstaz (ichki quvvatning tajribasi ularoq botiniy «ruhiyat»ning barq urishi) ko'magida Alloh bilan bevosita, o'z-yagona holatda (Vahdoniyat) aloqa-muloqotda bo'lish (hatto qo'shilib ketish deb ataladigan ma'lumotlar ham mavjud) imkoniyatga egaligini ifodalovchi maxsus robita-diniy dunyoqarash tushuniladi, — deb yozadi u, — mistik oqimlar mistitsizm bilan sug'orilgan idealistik falsafiy tizimlar kabi, har xil dinlar qobig'i ostida paydo bo'lgan,

ayniqsa feodalizm davrida musulmon davlatlarida mistik harakat so'fizm degan umumiy nom bilan ma'lum»[10,312] bo'lgan.

Tasavvuf ilmi va so'fiylar vasfi haqida «Tasavvuf suluk tarzi bo'lib, uning asosini nafs pok va ruh oliy bo'lishi uchun sodda hayot va fazilatlar ila ziynatlanib yashamoqdir»[11,15-35], deb aytilgan.

Tasavvuf suluki orqali irfon ilmining sayqallanishi va oriflik kasb etishligi chin ma'noda «Ilmi Odobdan ilmi Orif»[12]ga intilmoqlik shaklidir. Irfon ilmining maqsadi ularoq: tasavvufga ergashishlik odob va fuzu' ila oriflik-so'fiylik maqomida gavdalanadi. Bunda «Tasavvuf ilmi – so'fiylar e'tiqod qiladigan narsalar va o'z jamoalarida hamda yolg'iz qolganlarida ushlaydigan odoblardir. So'fiy – tasavvuf yo'lga ergashgan odamdır»[13,35], deb qaraladi. Demak, irfon bu axloqning bilishdagi in'ikosi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. Халқ сўзи. 2017. 16 июн
2. Васлий Самарқандий. Имом Аъзам ҳаёти ҳақида қимматли сўзлар, Ал=калому=л=афам фий маноқиби=л=имоми=л=аъзам. – Тошкент: Мажнунтол, 1991. – Б. 3.
3. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Форс – тожик тилидан Комилов Н. таржимаси). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994. – Б. 18.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мукаммал саодат йўли. – Тошкент: Hilol – nashr, 2014. – Б. 274.
5. Абдуҳалимов Б.А. Байт ал-ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). Масъул муҳаррир Хайруллаев М. – Тошкент: O'zbekiston. 2010. – Б. 9.
6. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 35.
7. Имом Шамсиддин Заҳабий. Сияру аъламин нурбало – Машхур даҳолар сийрати (китобидан сайланма асарлар) Алломалар тўғрисида маълумот. – Тошкент: Sharq, 2015. – Б. 3.
8. Пўлатов Ҳ., Маматов М. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – Тошкент: 2011. – Б. 143.
9. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в XIV—XV веках. ЛГУ, Л., 1966. – с. 12.
10. Навоий. Насойим ул-муҳаббат мин шамойимил футувват. – Тошкент: Movarounnahr, 2017. – Б. 63.
11. SI Doniyev, FA Ibrakhimov, IS Joldasov. Trends int the development of primary education (an example of the finnish system of primary education). Journal of innovatsions in pedagogy and psychology. 2020/2. 387-393.
12. Akhatov, L., Madalimov, T., Xaytmetov, R., & Ibrohimov, F. (2020). A Symbol of Tolerance and Friendship in Jamiy's Work" Bahoriston. International Journal of Current Science Research and Review, 3, 29-32.
13. Modern pedagogical approaches in legal education. FA Ibrokhimov - GOLDEN BRAIN, 2023